



Kimyo

- Molekulasi ikkita har xil atomdan tarkib topgan molekullarni aniqlang.
A) is gazi, magniy oksid, ozon
B) sulfat kislota, kislorod, ozon
C) karbonat angidrid, karbonat kislota, is gazi
D) is gazi, vodorod ftorid, vodorod xlorid
- 6 g kalsiy temperatura ta'sirida A modda bilan birikish reaksiyasiga kirishib 7,4 g birikma hosil qildi. Noma'lum A moddani toping.
A) oltingugurt B) uglerod C) azot
D) fosfor
- Elektron konfiguratsiyasi $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^1$ bo'lgan element va u hosil qilgan oddiy modda xossalarni toping.
1) suvda erib ishqor hosil qiladi; 2) suvda erimaydi; 3) elektron berishi olishiga nisbatan oson; 4) elektron olishi berishiga nisbatan oson.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2 D) 3, 4
- Muayyan atomning L qavatida 8 ta, M qavatida 5 ta elektroni bor. Ushbu atomga yoki shunday atomlar hosil qilgan oddiy moddaga xos xususiyatni toping.
A) amfoter xususiyatga ega
B) issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi
C) vodorodli birikmasi suvda erib asos hosil qiladi
D) allotropik shakl o'zgarishlari mavjud
- Aluminiy gidroksoxromatda nechta σ -bog' mavjud?
A) 8 B) 10 C) 6 D) 12
- Aluminiy xromatda nechta σ -bog' mavjud?
A) 24 B) 21 C) 18 D) 15
- $NH_3(g) + Cl_2(g) \rightleftharpoons N_2(g) + HCl(g)$ sistemada muvozanat holatida moddalarning konsentratsiyalari mos ravishda 0,3; 0,5; 0,1 va 0,6 mol/l dan bo'lsa, Cl_2 va NH_3 larning boshlang'ich konsentratsiyalarini (mol/l) aniqlang.
A) 1,6; 0,8 B) 0,8; 0,5 C) 3; 2 D) 1,2; 1

- Hosil bo'lgan eritmaning massasini (g) aniqlang.




- A) 401 B) 361 C) 400 D) 415
- Quruqlik va okean o'simliklari fotosintez jarayoni natijasida atrof-muhitga har yili 320 milliard tonna kislorod gazini ajratib chiqaradi. Har yili o'simliklar tomonidan atrof-muhitga necha molekula kislorod ajratib chiqariladi?
A) $6,02 \cdot 10^{32}$ B) $6,02 \cdot 10^{35}$ C) $60,2 \cdot 10^{38}$
D) $6,02 \cdot 10^{30}$
 - Qaysi tuzlarning eritma muhiti ishqoriy bo'ladi?
A) natriy ftorid, kaliy sulfid
B) rux sulfat, kadmiy nitrat
C) mis (II) xlorid, kalsiy nitrat
D) temir (II) nitrat, magniy sulfat
 - Qaysi omillar yordamida kaliy sulfid gidrolizini kamaytirish mumkin?
A) eritmani sovitish, kislota qo'shish
B) eritmani sovitish, ishqor qo'shish
C) eritmani qizdirish, kislota qo'shish
D) eritmani qizdirish, ishqor qo'shish
 - Kerakli sharoitlarda qaysi ta'sirlashuv(lar)da birikish reaksiyasi sodir bo'ladi?



- A) faqat II B) faqat III C) faqat I
D) I, III

- Kerakli sharoitda qaysi ta'sirlashuv(lar)da tuz hosil bo'ladi?




- A) I, III B) I, II C) faqat I D) II, III

14. Mol nisbati 2:3 bo'lgan E_2O_3 va EO_2 aralashmasining 0,5 moli 29 g bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) azot B) marganes C) xlor D) titan
15. Massa jihatdan 17,6 % FeS , 24 % FeS_2 va qolgan qo'shimcha jinsdan iborat mineral tarkibidagi oltingugurtning massa ulushini (%) aniqlang (qo'shimcha jins tarkibida oltingugurt mavjud emas).
A) 19,2 B) 12,8 C) 22,4 D) 16
16. Qaysi birikmada azotning oksidlanish darajasi -3 va $+5$ qiymatlarga ega bo'ladi?
A) ammoniy nitrat B) ammoniy nitrit
C) mochevina D) ammoniy sulfat
17. Azot va vodoroddan ammiak olish reaksiyasida (ekzotermik) muvozanatni o'ng tomonga siljitish uchun qanday amallarni bajarish zarur?
1) bosimni orttirish; 2) bosimni kamaytirish; 3) haroratni pasaytirish; 4) azot konsentratsiyasini oshirish; 5) vodorod konsentratsiyasini kamaytirish.
A) 1; 3; 5 B) 2; 4; 5 C) 2; 3; 5 D) 1; 3; 4

18. Quyidagi moddalar qaysi reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi?
1) $CuCl_2$, $ZnSO_4$, $NaHCO_3$;
2) H_2O , $Ba(OH)_2$, Li_2O .
a) temir; b) natriy gidroksid; c) fosfor (V) oksidi.
A) 1-c; 2-a B) 1-a; 2-b C) 1-b; 2-c
D) 1-a; 2-a

19. x tuzning suvli eritmasi ikkita probirkaga ajratildi va rasmdagidek tajriba o'tkazildi. x tuzni toping.



- A) magniy nitrat B) osh tuzi
C) magniy sulfat D) soda

20. Qaysi qatorlardagi tuzlarning eritma muhiti noto'g'ri ko'rsatilgan?

№	tuzning suvli eritmasidagi muhit		
	kislotali	neytral	ishqoriy
1	aluminium xlorid	kaliy xlorat	kalsiy atsetat
2	kaliy nitrat	natriy sulfat	kaliy permanganat
3	magniy sulfat	bariy xlorid	natriy karbonat
4	natriy sulfid	kaliy formiat	rux yodid
5	seziy karbonat	temir (II) sulfat	natriy nitrat
6	mis (II) bromid	ammoniy karbonat	kaliy karbonat

- A) 1, 3, 5 B) 1, 3, 6 C) 2, 4, 5 D) 2, 4, 6